



ILMIY AXBOROTNOMA

№ 3, 2025

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК * SCIENTIFIC BULLETIN

BUXORO PSIXOLOGIYA VA
XORIJIY TILLAR INSTITUTI



ILMIY AXBOROTNOMASI

ISSN 3030-3710 (P)
ISSN 3030-3095 (E)

№ 3, 2025



ISSN 3030-3710



E-ISSN 3030-3095

<http://buxpxti.uz>



ISSN 3030-3710 (P)
ISSN 3030-3095 (E)

**BUXORO PSIXOLOGIYA VA XORIJIY TILLAR INSTITUTI ILMIY
AXBOROTNOMASI**
ilmiy-amaliy jurnal

**SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA INSTITUTE OF PSYCHOLOGY
AND FOREIGN LANGUAGES**
scientific and practical journal

**НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО ИНСТИТУТА ПСИХОЛОГИИ
И ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**
научно-практический журнал

№ 3, 2025

Muassis: Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti
Tahririyat manzili: Buxoro viloyati, Kogon tumani, B.Naqshband MFY, 20-uy
<http://buxpxti.uz/>, buxpxti@gmail.com

Tel: +998918312511 Sobirova D.A.
+998905124244 Ostanov Sh.Sh.
<https://t.me/OstanovSH>

ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI PREZIDENTI ADMINISTRACIYASI XUZURI DAGI
AXBOROT VA OMMAVIY KOMMUNIKACIYALAR AGENTLIGI

ГУВОХНОМА
№ 064916

"BUXORO PSIXOLOGIYA VA XORIJIY TILLAR INSTITUTI" MASULIYATI
CHEKLANGAN JAMIYAT

Ommaviy axborot vositasi davlat ruyxatidan utkazilganligi tuerisida gi
guvoxno ma

ЛИЦЕНЗИЯ РЕЕСТРИ БЎЙИЧА ТАРТИБ РАҚАМИ
C-5669145

СТПР (СОЛІҚ ТЎЛОВЧИНИНГ ІДЕНТИФІКАЦІОН РАҚАМИ)
308196898

АМАЛ ҚИЛИШ МУДДАТИ
22.02.2023дан

ЖОЙЛАШГАН МАНЗИЛИ (ПОЧТА МАНЗИЛИ)
Бухоро вилояти, Когон тумани, "В. НАҚШБАНД" МФУ HUDUDI

ВАКОЛАТИ ОРГАН
Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси хузурида ги Ахборот ва оммавий
коммуникациялар агентли ги

22.02.2023 12:34
ТАҚДИМ ЭТИЛГАН САНА

Гувохнома № 064916

Фаолият тури
Ommaviy axborot vositasi sifatida faoliyatni amalga oshirish

Қўшимча маълумотлар

Ўқимча маълумотлар	Оммавий ахборот воситасининг номи	Оммавий ахборот воситасининг тили	Оммавий ахборот воситасининг тури
BUXORO PSIXOLOGIYA VA XORIJIY TILLAR INSTITUTI ILMIY AXBOROTNOMASI	OZBEK, RUSS, ILINCLIZ	Журнал	

ТАРҚАТИЛИШ ХУДУДИ ВА ШАКЛИ

Тарқатилиш хууд и ва шакли	Хууд	Тарқатилиш шакли
Республика миқсисда		Аънавий

**BUXORO
PSIXOLOGIYA VA
XORIJIY TILLAR
INSTITUTI ILMIY
AXBOROTNOMASI**
ilmiy-amaliy jurnal
3-son
Buxoro - 2025. - 376 b.

**Научный вестник
Бухарского
института
психологии и
иностранных
языков**
научно-практический
журнал
Выпуск 3.
Бухара - 2025. - 376 с.

Jurnal Buxoro psixologiya
va xorijiy tillar instituti
muassisligidagi nashr
hisoblanadi.

**Jurnalning nashr sifati
uchun bosmaxona
javobgar.**

OBUNA INDEKSI 3062

Jurnal tahririyat kompyuterida
sahifalandi.
Bosishga ruxsat etildi 11.04.2025
Qog'oz bichimi 60x84, 1/8
Tezkor bosma usulda bosildi.
Shartli bosma tabog'i 23
Buyurtma № 53. Adadi - 60
Bahosi kelishilgan narxda.
«Sharq-Buxoro» MCHJ
bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili:
Buxoro shahar O'zbekiston
Mustaqilligi ko'chasi, 70/2 uy.
Tel: 0(365) 222-46-46



BOSH MUHARRIR:

Baratov Sharif Ramzanovich

psixologiya fanlari doktori, professor,

Xalqaro psixologiya fanlari akademiyasining haqiqiy a'zosi (akademigi)

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shoumarov G' B. – O'zbekiston Respublikasi fanlar Akademiyasi Akademigi

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Mas'ul kotib:

Sobirova D.A. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

XORIJ OLIMLARI

Kozlov V.V. - psixologiya fanlari doktori, akademik (Rossiya)

Malix S.B. -psixologiya fanlari doktori, akademik (Rossiya)

Maksimenko S.D. - psixologiya fanlari doktori, akademik (Ukraina)

Rejep O'zyurek -psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)

Darya Gaysina - Sasseks universiteti Psixologiya fakultetida genetika va epigenetika, PhD (Angliya)

O'ZBEKISTON OLIMLARI

PSIXOLOGIYA FANLARI

Umarov B.M. - psixologiya fanlari doktori, professor

Qodirov B.R. - psixologiya fanlari doktori, professor

Qodirov U.D. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Kadirov K.B. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Abdurasulov R.A. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Baratova D.Sh. -psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Utepbarganov M.A. - psixologiya fanlari doktori, professor

Nazarov A.M. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Atabayeva N.B. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Fayziyeva M.X. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Qarshiyeva D.S. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Abdullayeva D.U. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Arzikulov D.N. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Djurayev B. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Ayrapetova A.G. - psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Usmanova M.N. - psixologiya fanlari nomzodi, professor

Raximova I.I. - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ostanov Sh.Sh. - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Rustamov Sh.Sh. - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ibaydullayeva U.R. - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Sobirov A.A. - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

PEDAGOGIKA FANLARI

Ibragimov X.I. - O'zbekiston Respublikasi fanlar Akademiyasi Akademigi

Olimov Sh.Sh. - pedagogika fanlari doktori, professor

Abdullayeva B.S. - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Hamroyev A.R. - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Rajabov T.I. - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Dilova N.G. - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

FILOLOGIYA FANLARI

Shodmonov Q.B. – filologiya fanlari doktori, professor

Gadoyeva M.I. - filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Rajabov D.Z. - filologiya fanlari doktori, professor

Haydarov A.A. - filologiya fanlari doktori, professor

Astanova G.A. - filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Rasulov Z.I. - filologiya fanlari doktori (DSc), professor v.b.

Toirova G.I. - filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Murodov G.N. - filologiya fanlari doktori, professor

Eshbekov T.U. - filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Raxmatullayev Sh.N. - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Xalilova R.R. - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Saidov X.Sh. - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

MUHARRIRLAR:

Raxmatova M.M. - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov M.M. - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov A.M. - BuxPXTI "Xorijiy tillar" kafedrası mudiri

297	Jo'rayev Husniddin Oltinboyevich, Nekboyev Xurshid Xoliyorovich Mediata'lim amalga oshirishdagi zamonaviy metodlar tavsifi
302	Tadjibayev Baxram Ruziyevich Intellectual mehnat texnologiyalarida innovativlik va kreativlik
307	Salimjonova Zarina Murodjon qizi Bo'lajak mutaxassislarda ijodiy kompetentlikni rivojlantirishda xalq og'zaki ijodi namu- nalaridan foydalanish metodikasi
310	Dilova Nargiza Gaybullayevna Innovatsion ta'lim muhitida bo'lajak o'qituvchilarning shaxsiy ta'lim trayektoriyasini loyihalash usullari
314	Hotamova Maftuna Madatovna Bo'lajak ingliz tili fani o'qituvchilarining o'quvchilarda til savodxonligi ko'nikmasini rivojlantirish usullari
318	Musayeva Amina Karamatovna Oliy ta'lim tizimida talabalarning kommunikativligini rivojlantirishda innovatsion yon- dashuvlarning dolzarbligi
325	Ne'matova Flora Baxtiyor qizi Xalqaro tadqiqotlar asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilimni baholash
334	Polvonova Charos Bahromqulovna Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari va o'qituvchi kompetentligiga qo'yilgan talablar
	10.00.00 – FILOLOGIYA
340	Jo'raqulova Parizoda Otabek qizi Linguistic connections of language and culture
344	Jo'rayeva Gulmira Zufarjon qizi Tillarni o'qitishda veb-kvest texnologiyasining ahamiyati va xususiyatlari
348	Omonova Dildora Nekmurodovna Boshlang'ich sinf ona tili darsliklaridagi mashqlar tasnifi.
352	Qodirova Ro'zigul Sadulloyevna, Raxmatova Sabrina Otabek qizi O'tkir xoshimov asarlari ruscha bevosita tarjimasiga xos lingvopoetik xususiyatlar
356	Raxmatova Mehriniso Musinovna Implikatura: semantik ma'no va kontekstual ma'no munosabatlari
360	Yuldasheva Mashxura Muzafarovna Qadriyatli yondashuv asosida talabalarda fuqarolik pozitsiyasini takomillashtirish mazmuni
364	Отчет по результатам проведения международного конгресса «ПСИХОЛОГИЯ XXI СТОЛЕТИЯ»

Raxmatova Mehriniso Musinovna
Buxoro davlat universiteti dotsenti PhD
E-mail. m.m.rahmatova@buxdu.uz

IMPLIKATURA: SEMANTIK MA'NO VA KONTEKSTUAL MA'NO MUNOSABATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada pragmatika sohasining Yevropa va Anglo-Amerika kontinenti maktablari nazariy qarashlari farqlanib, leksik, semantic va kontekstual ma'nolar asosida tahlil amalga oshirilgan. Pragmatikaning asosiy mavzularidan bo'lmish implikatura hodisasi tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: pragmatika, implikatura, leksik ma'no, sintaksis, kontekstual ma'no

ИМПЛИКАТУРА: ОТНОШЕНИЯ СЕМАНТИЧЕСКОГО ЗНАЧЕНИЯ И КОНТЕКСТНОГО ЗНАЧЕНИЯ

Аннотация. В данной статье объяснены теоретические взгляды европейской и англо-американской школ в области прагматики, и анализ проводится на основе лексических, семантических и контекстуальных значений. Анализируется феномен импликатуры, который является одной из основных тем прагматики.

Ключевые слова: прагматика, импликатура, лексическое значение, синтаксис, контекстуальное значение.

IMPLICATURE: SEMANTIC MEANING AND CONTEXTUAL MEANING RELATIONS

Abstract. In this article, the theoretical views of the European and Anglo-American schools of pragmatics are distinguished, and an analysis is carried out based on lexical, semantic and contextual meanings. The phenomenon of implicature, which is one of the main topics of pragmatics, is analyzed.

Keywords: pragmatics, implicature, lexical meaning, syntax, contextual meaning.

Tilshunoslikning Pragmatika sohasi tilni bilish va uni tahlil qilishga oid tadqiqotlarda ulkan o'zgarishlar yasay oldi. Pragmatika terminining izohlariga nazar solar ekanmiz, uni "ma'noning kontekstda o'rganilishi tadqiqi", "ma'noning tildan foydalanish jarayonlaridagi namoyon bo'lishini o'rganish" yoki "barcha lisoniy hatti harakatlar tadqiqi" kabi umumlashtiruvchi ta'riflariga tez-tez ko'zimiz tushadi [3]. Bunday ta'riflarga tanqidiy yondashishning mushkuloti "kontekst", "til yoki ma'nodan foydalanish" kabi konseptlarni anglash va yoritib berishdan iborat albatta.

Pragmatikaning zamonaviy yondashuvlari ikki maktabning ya'ni Anglo-Amerika va Yevropa kontinenti maktablariga tayanishini Pyotr Kap o'z tadqiqotlarida belgilab o'tadi. Anglo-Amerika maktabi 'komponent' qarashlari ya'ni pragmatika til nazariyasining asosiy elementi yoki yadrosini tashkil etib, fonetika, fonologiya, morfologiya, sintaks va semantika bilan teng mavqeda ekanligiga urg'u beradi. Demak komponent yondashuvda pragmatika ham bir necha tadqiqot obyektlariga ega[4]. Bular implikatura, dayksis, presuppozitsiya va nutq aktlari. Yuqorida keltirilgan pragmatikaga oid ta'riflarning izohlari Anglo-Amerika maktabining kompenent yondashuvi bilan muvofiq ekanligini tilda nimani tadqiq qilish(lisoniy birlikning ma'nosini) va qay tarzda tadqiq qilish (lingvistik belgi ishtirokidagi tildan foydalanishlar kontekstda (aniq vaziyatda) sodir bo'lishi) mazmunida aniq ko'rishimiz mumkin.

Evropa maktabi tadqiqotlari pragmatikani til nazariyasining alohida farqli bir elementi sifatida tadqiq etmaydi, balki til sistemasidagi sintaks, semantika va boshqa bo'limlarining ichida kechuvchi lingvistik hatti-harakatning barcha aspektlariga funksional nazar bilan yondashadi. Pragmatikaga berilgan ta'riflar bilan ushbu yo'nalishning tadqiqotlari ham muvofiqdir.

An'anaviy sintaksis va semantikaga asoslangan tahlillarga ko'ra quyidagi gapni tahlil qilamiz:

(1)A: Umrinda ko'rmaganman bunday xudbinlikni [5]

Sintaktik tahlil:

[Gap turi]: Darak gap, ya'ni biror faktni tasdiqlaydi.

[Gap tuzilishi]: Sodda gap (faqat bitta asosiy ega va kesimi bor).

[So'z tartibi]: Erkin so'z tartibli o'zbek tilida, so'z tartibi unchalik qat'iy emas, lekin bu gapda nisbatan inversiya tartib qo'llanilgan.

Gapdagi so'zlarning sintaktik vazifalari:

"Umrinda" - hol (vaqt holi, hech qachon ko'rmaganligini bildiradi)

"bunday" - aniqllovchi (xudbinlikning qandayligini aniqlaydi)

"xudbinlikni" - to'ldiruvchi (nimani ko'rmaganligini bildiradi, tushum kelishigida)

"ko'rmaganman" - kesim (gapning asosiy harakatini ifodalaydi)

Semantik tahlil:

[Gapning ma'nosi]: Gapiruvchi o'z hayotida hech qachon bu qadar kuchli, misli ko'rilmagan xudbinlikni ko'rmaganligini bildiradi. Ya'ni, gapiruvchi xudbinlikning darajasidan hayratda yoki norozilikda ekanligini ifodalaydi.

[Leksik ma'no]:

"Umr" - hayot davri.

"Bunday" - shunga o'xshash, shu kabi.

"Xudbinlik" - faqat o'z manfaatini o'ylash, boshqalarni mensimaslik.

"Ko'rmoq" - ko'z bilan idrok etmoq (bu yerda majoziy ma'noda, boshidan kechirmoq, duch kelmoq).

Predikatsiyaning (kesimli ifoda) rost (true) ekanligiga dalil gapiruvchining nutqiy ifodadagi majburiyatni olganligi uning "umrida ko'rmaganligi" bilan teng. Ya'ni "umrimda" "hayotimda" og'zaki ifodasiga urg'u berish uning "o'z gapiga amin ekanligini" va bu holat "aniq ekanligini" namoyon etadi.

Gapdagi bu holatlar quyidagi 3 turdagi ishni bajaradi: 1. Nutqiy ifoda (propozitsiya) ma'nosini markerlanmagan ko'rinish bilan qiyoslab izohlaydi (bu yerda "umrimda" ifodasi extrapozitsion holatda. U ekstrapozitsiyadan tashqarida bo'lgan doimiy strukturadagi ya'ni normal gap bilan qiyoslanadi. Ya'ni gapning o'rtasida kelishi mumkin bo'lgan so'z gapni boshlab bermoqda) 2. U qanday boshqa ekstrapozitsiyalar grammatik jihatdan to'g'ri, asosli ishlatilishiga ko'rsatma beradi. 3. U gap tartibining o'zgarishini ko'rsatib o'tadi (ot- kesim inversiyasi, o'zbek tilida gap tartibi qat'iy bo'lmasada bu gapda inversiya yaqqol bilinadi)

Tahlilga tortilgan gap tuzilishi sodda bo'lsada, semantik jihatdan boy ekanligini yuqoridagi tahlil qisman yoritadi. Mazkur gap orqali gapiruvchining xudbinlikka nisbatan kuchli emotsional munosabatini yoki tinglovchiga muayyan taasurot qoldirishga qaratilganligini yuqoridagi tahlildan yaqqol aniqlab bera olmaymiz. Futbolchining bunday og'zaki ifodasini (utterance) ommaviy axborot vositasidagi maqolada sarlavha sifatida, gap shaklida ifodalash ko'plab o'quvchilarni va obunachilarni o'ziga jalb etadi va jurnalistning asosiy intensiyasi ham uning harakatida ma'lum, ya'ni ko'proq obunachilarni sport internet sahifasiga jalb qilishdir. lekin yuqoridagi gapni jurnalistik intensiyadan tashqari gapiruvchining nimani nazarda tutib bunday gapni ifodalagani yoki uning intensiyasi maqolani o'quvchi obunachilar uchun muhimlik kasb etadi. Tildan foydalanishning kontekst asosidagi pragmatik tahlili esa nafaqat tashqi grammatik elementlar balki gap sathidan bilinmaydigan ma'noni tinglovchi bilan muloqotdagi so'zlovchining ritorik tanlovi qaysidir aniq holatda harakat yoki harakatsiz maqsadga erishishga intilishi tilning shakliy imkoniyatlaridan chetga o'tib "kontekst" imkoniyatlariga murojaat qilishini talab etadi. Xuddi shu nuqtada "GAP" "NUTQIY IFODAGA" aylanadi [2]

1-misoldagi nutqiy ifodani aniq fahmlash uchun 'pragmatik to'yintirilgan' tahlillar orqali tasavvuriy kontekstga turli savollar berib qo'shimcha ma'noni hosil qilishimiz mumkin. 1. So'zlovchi va tinglovchi bir-birini qanchalik yaxshi taniydi? 2. Ular oldin futboldagi xudbinlik vaziyati nima ekanligini anglashadimi? "Xudbinlik" konseptini anglash uchun so'zlovchi va tinglovchi qanday ensiklopedik bilimga ega? Futboldagi ushbu holatni baholashda so'zlovchi va tinglovchi fikrlari teng

keladimi? Qandaydir pozitiv yoki negativ stereotip qarashlar mavjudligi (masalan Messining mashhurlikiga oid yoki Mbappening kontrakni yangilay olganligi sabab) qarama qarshi bo'la oladimi? Albatta bu savollarga javoblar har xil bo'lishi mumkin lekin keling biz haqiqiy kontekstga qarab ma'noni chiqarishga harakat qilaylik. 1-misoldagi gap implikaturasi tahlili:

1-misoldagi nutqiy ifodadagi holatni qaysi faktorlarga bog'laymiz? nutqiy ifoda intensiyasi (funktsiyasi) bilan uning effekti bizni qay darajada gapning ma'nosini anglash uchun yaqinroq olib keladi? Jurnalistning futbolchidan Mbappening bunday harakatining sababi haqidagi savolga 1-misoldagi javobni olishi (holbuki 1-misoldagi bu javob oddiy gap tarzida yoki holatga aniqlik kirituvchi tushuntirishlar asosidagi javob bo'lishi mumkin edi, ammo quyidagi effekt kontekst natijasida ko'rindi

Implikatura]: Gapiruvchi bu xudbinlikni juda qoralashi, unga nisbatan g'azab yoki nafrat his qilishi mumkinligi oqibatidagi tanbeh.. Gap ohangiga qarab bu ma'nolar aniqroq bo'ladi.

[Emotsionallik]: Gapda kuchli emotsional bo'yoq bor. "Umrimda (hech qachon) ko'rmaganman" iborasi hayrat, norozilik yoki qoralashni kuchaytiradi.

1- misoldagi nutqiy ifoda orqali so'zlovchi (futbolchi) Ueyn Runi, (mashhur futbolchi) Kilian Mbappening futbol maydonidagi sherigi (mashhur futbolchi) Messiga nisbatan harakatiga, ya'ni uni turtib yuborishiga nisbatan noroziligini bildirgan. 'Xudbinlik' deb baholangan turtib ketish harakati aynan Mbappening Messidan yosh ekanligga (24 yosh), uning (o'zini jamoaning asosiy yulduzi deb hisoblay boshlashi) PSJ bilan yangi kelishuvni imzolaganlik muvaffaqiyati Messining uning yoshida bo'lganidagi muvaffaqiyatlari bilan teng kelolmasligini, ya'ni Messi 25 yoshda 4 ta "oltin to'p"ni qo'lga kiritganligi haqidagi axborotlar kontekst sifatida Mpappening "o'zini jamoaning asosiy yulduzi" deb hisoblay boshlashayotganligi shunday oqibatlarga olib kelayotganligiga (bundan oldin ham kiyim almashtirish xonasida Messi bilan tortishganligini) ishora etadi. Maqsad esa Mbappeni uni o'z o'rniga qo'yish uchun tanbeh sifatidagi implikatura deb tahlil qilish mumkin.

Nutqiy ifodaning ma'no markaziga erishish uchun so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi kontekstual bog'liqlik juda muhim. Kontekst tushunchasini ta'riflash juda qiyin yoki nima kontekst emasligini aniqlash ham mushkul [1]. Pyotr Kap esa kontekstga quyidagicha ta'rif berishga harakat qiladi. Kontekst nutqiy ifoda, aniq holat hamda ularning natijalarining orqa fondagi katalogi bo'lib, yangi nutqiy ifodaning funksiyasini aniqlaydi, u (kontekst) so'zlovchi va tinglovchi lingvistik tajribasining umumiyliqi tarixidir. Ularga ko'ra so'zlovchi bir necha natijaviylikni oldindan bilib turib effektiv natijaga nutq orqali erishadi [1].

Pragmatikaning asl mohiyati bo'lgan so'zlashuv implikaturasi tinglovchining kontekstdan va umumiy bilimdan ma'no chiqarish qobiliyatiga tayanib, so'zlovchiga aniq aytilganidan ko'ra ko'proq ma'lumot yetkazish orqali samarali va nozik muloqot qilish imkonini beradi. Biz Graysning Kooperativ Prinsip va uning turli kontekstlarda yashirin ma'noni tushunish uchun oqibatlariga e'tibor qaratgan holda implikaturaga oid turli qarashlarni tahlil qilamiz. Tahlil turli xil muloqot muhitlarida implikaturani o'rganuvchi bir qator tadqiqotlarga asoslanadi, jumladan adabiy asarlar, kino va madaniyatlararo o'zaro ta'sirlar. Yakuniy maqsad turli kontekstlarda samarali va mazmunli muloqotga erishish uchun implikaturani chuqur tushunish qanchalik muhimligini ko'rsatishdir.

2. Nazariy asoslar: Greysning hamkorlik tamoyili va undan tashqari

Grays kooperativ (hamkorlik) tamoyili, pragmatikaning asosiy tushunchasini tushuntirish orqali poydevor yaratadi. Graysning ta'kidlashicha, suhbat ishtirokchilari umumiy kommunikatsiyaga erishish uchun hamkorlik qilishga bilvosita rozi bo'ladilar [3]. Masalan:

I:A: --Eski shahraga qanday borsam bo'ladi?

B:--Shu yo'ldan to'g'riga, keyin esa o'nnga burilasiz.

Bu hamkorlik to'rtta tamoyil bilan boshqariladi: miqdor (yetarli axborotni ulashish, lekin had-dan tashqari ko'p emas), sifat (to'g'ri so'z bo'lish), muvofiqlik (so'zlovchining vaziyati, mavzusi va maqsadiga mos muloqot turini tanlash) va uslub tamoyili (aniq va bir ma'noli bo'lish) (Han, 2024). Biroq, so'zlovchilar ko'pincha bu maksimalarni chetlab o'tadilar yoki buzadilar, bu esa so'zlashuv implikaturalarini - aniq ifodalanmagan yashirin ma'nolarni keltirib chiqaradi. Masalan, istehzoli izoh sifat maksimasini, kamsitish esa miqdor maksimasini chetlab o'tadi. Ushbu implikaturalarni talqin qilish ko'p jihatdan nutqning konteksti va nutq o'rtasidagi umumiy bilimga bog'liq.

Graysning hamkorlik tamoyili implikaturani tushunish uchun qimmatli asos bo'lsa-da, uning e'tibor qaratish kerak bo'lgan jihatlari mavjud. Masalan, Lichning xushmuomalalik tamoyili shuni ko'rsatadiki, xushmuomalalik mulohazalari ba'zan hamkorlik tamoyilidan ustun kelishi mumkin [2], hatto to'g'ridan-to'g'ri yondashuv ko'proq ma'lumot beradigan bo'lsa ham, implikaturaga olib keladi. Bundan tashqari, tamoyil muloqot uslublaridagi madaniyatlararo farqlarni to'liq hisobga olishda qiyinchiliklar tug'diradi. Bir madaniyatda mutlaqo maqbul implikatura deb hisoblanishi mumkin bo'lgan narsa boshqa madaniyatda noto'g'ri talqin qilinishi yoki hatto haqoratli bo'lishi mumkin. Noformulaviy implikaturalarning murakkabligi, ya'ni o'rnatilgan qonuniyatlar asosida osonlikcha oldindan aytib bo'lmaydigan implikaturalar ham Grays modeliga qiyinchilik tug'diradi. Bu cheklovlar implikaturani tushunishga kontekst, madaniy farqlar va kognitiv jarayonning murakkabliklarini hisobga olgan holda yanada nozikroq yondashuv zarurligini ko'rsatadi.

3. Turli kontekstlardagi suhbat implikaturasi: qiyosiy tahlil

Turli kommunikativ kontekstlarda so'zlashuv implikaturasining vazifasi tahlil qilinar ekan, badiiy asarlarda mualliflar implikaturadan ma'no qatlamlarini yaratish, xarakter xususiyatlarini nozik ochib berish, syujetni ilgari surish va hikoyaning umumiy ta'sirini kuchaytirish uchun foydalanadilar. Masalan, kinoya, kesatiq va kamsitishdan foydalanish qahramonlarning o'zaro munosabatlariga chuqurlik va murakkablik qo'shishi mumkin, bu esa o'quvchilarga ochiq aytilmagan motivlar va niyatlarni aniqlash imkonini beradi. Jeyn Ostin romanlaridagi qahramonlar o'rtasidagi nozik ishoralar va yashirin ziddiyatlarni ko'rib chiqaylik - o'quvchi ularning munosabatlari haqida to'g'ridan-to'g'ri bayonotlar orqali emas, balki implikatura orqali ko'proq ma'lumot beradi. Turli janr va adabiy uslublarda implikatura turlicha qo'llaniladi, bu mualliflarning o'ziga xos estetik maqsadlari va kommunikativ strategiyalarini aks ettiradi.

Kino va televideniye ham tomoshabinlarni jalb qilish va hikoya rivojini kuchaytirish uchun suhbat implikaturasiga ko'p tayanadi (Suhaeni, 2019), (Kelvin, 2022). Nozik imo-ishoralar, mimikalar, dialogdagi pauzalar - bularning barchasi yashirin ma'nolarni yaratishga yordam beradi. Bu ma'nolarning talqini ko'pincha tomoshabinning o'z bilimi va tajribasiga bog'liq bo'lib, filmning syujet va tematik elementlarining yanada boy va rang-barang talqin qilinishiga olib keladi. Masalan, sarguzashtli trillerda qahramonlar o'rtasidagi yashirin tashvishlar va shubhalar implikatura orqali ifodalanishi mumkin, bu esa keskinlik tuyg'usini yaratadi. Xuddi shunday, komediya filmlari hazil-mutoyiba yaratish uchun ko'pincha implikaturadan foydalanadi, bunda tomoshabinlarning aytilgan so'zlardan tashqari ko'zlangan ma'noni tushunish qobiliyatiga tayanadi.

Madaniyatlararo muloqot implikaturani tushunish uchun noyob qiyinchiliklar va imkoniyatlarni keltirib chiqaradi. Muloqot uslublaridagi madaniy farqlar yashirin ma'nolarni ishlab chiqish va talqin qilishga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bir madaniyatda xushmuomala yoki tegishli implikatura deb hisoblangan narsa boshqa madaniyatda qo'pol yoki chalkash deb qabul qilinishi mumkin. Bu implikaturalarni talqin qilishda madaniy sezgirlik zarurligini ta'kidlaydi va madaniy chegaralar bo'ylab o'zaro ta'sir qilishda noto'g'ri muloqot imkoniyatlarini tan olish muhimligini ko'rsatadi. Madaniy kontekstni sinchkovlik bilan ko'rib chiqish tushunmovchiliklarning oldini olish va yanada samarali madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish uchun juda muhimdir. Ishbilarmonlik muloqoti ham ko'p jihatdan implikaturaga tayanadi, xususan, muzokaralar va hamkorlikda bilvositalik va xushmuomalalik ijobiy munosabatlarni saqlab qolish va kutilgan natijalarga erishish uchun strategik vosita bo'lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Cap, P. (2010). Pragmatics, Micropragmatics, Macropragmatics. Lodz Papers in Pragmatics, 6(2), 195-228. <https://doi.org/10.2478/v10016-010-0011-0>
2. Grice, P. (1991). Studies in the Way of Words. Harvard University Press.
3. Grice, H. P. (1988). Utterer's meaning, sentence-meaning, and word-meaning. Philosophy, language, and artificial intelligence: Resources for processing natural language, 49-66.
4. Neale, S. (1992). Paul Grice and the philosophy of language. Linguistics and philosophy, 509-559.
5. www.sport.uz/news/views/runi-umrimda